

IJTIMOIIY ADAPTATSIYA JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI  
DINIY PSIXOLOGIK OMILLAR

*Dusmuxamedova Shoira Akbarovna*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Din psixologiyasi va pedagogika" kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi,*

*Hamroyeva Zarnigor Alisher qizi*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Psixologiya (Din psixologiyasi) yo'nalishi magistranti*

**ANNOTATSIYA**

Maqolada oliy ta'limda bilim olish faoliyatini boshlagan talabalarning ijtimoiy moslashuvida faol harakat qilishlari jarayonida qaysi diniy psixologik omillar ta'sir omili bo'lishi mumkinligi ochib berilgan. Oliy ta'lim jarayoniga tayyorlik, o'quv faoliyatini boshqarish, yangi guruh a'zolari bilan munosabatga kirishish, o'quv materiallarini o'zlashtirish, yangi muhitda o'qituvchilarni va ularning dars jarayonidagi uslublarini qabul qilish, topshiriqlarni bajarish kabilarga nisbatan talabalardagi ijtimoiy moslashuvga bo'lgan intilish muhim ahamiyat kasb etishi, bu jarayonga ta'sir etuvchi diniy psixologik omillar yoritilgan.

**ANNOTATION**

The article reveals which religious psychological factors can be an influence factor in the process of social adaptation of students who have started learning in higher education. Preparation for the higher education process, managing educational activities, getting into a relationship with new group members, mastering educational materials, accepting teachers and their teaching methods in a new environment, and completing assignments The importance of the desire to be, the religious psychological factors affecting this process are highlighted.

**АННОТАЦИЯ**

В статье раскрывается, какие религиозно-психологические факторы могут выступать фактором влияния в процессе социальной адаптации студентов, приступивших к обучению в вузе. Подготовка к вузовскому процессу, управление учебной деятельностью, установление взаимоотношений с новыми членами группы, освоение учебных материалов, принятие преподавателей и их методов обучения в новой среде, выполнение заданий. Важность желания быть, религиозно-психологические факторы. Влияющие на этот процесс выделены.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy moslashuv, diniy tolerantlik, diniy bag'rikenglik, diniy ong, diniy e'tiqod, diniy ustanovka, diniy yo'nalganlik.

Hozirgi yangi davrda O‘zbekiston Respublikasida eng asosiy e’tibor ta’lim tizimi va uning sifatiga hamda har bir shaxsga ijtimoiy muhitga moslashish uchun qulay sharoitlarni yaratib berishga qaratilayotganligi hech kimga sir emas. Ushbu e’tiborni 2023- yilning nomlanishida ham, ya’ni 2023-yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” deb e’lon qilinganligi ham yuqoridagi fikrimizning dalilidir. Aynan oliy ta’limda ilm olishning ilk bosqichlarida yangi bilimlarni o‘zlashtiruvchi talabalar duch keladigan asosiy muammolardan biri bu ushbu yangicha jarayonga moslashish (adaptatsiya)dir. Ijtimoiy adaptatsiya jarayonida ularga albatta ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik va diniy psixologik omillar mavjud bo‘ladi. Buning asosiy sababi talabalarning aksariyat qismi o‘zi yashab turgan hududidan olisda joylashgan Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishadi va shu sababdan ular o‘zlari uchun yangi bo‘lgan muhitga, sharoitga, boshqa notanish shaxslar guruhiga tushib qolishadi. Bu vaqtda turli darajadagi va ko‘rinishdagi psixologik, fiziologik, ijtimoiy, moddiy va boshqa bir qancha o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Hammamizga ma’lumki ijtimoiy adaptatsiya jarayoniga ta’sir etuvchi omillar orasida diniy psixologik omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarning talabalar shaxsida mavjudlik darajasiga qarab ularning ijtimoiy faolligiga ma’lum bir ko‘rinishda ta’siri mavjud bo‘ladi. Ushbu o‘rinda Qur’onning Oli Imron surasi, 191-oyatida “Ular turib ham, o‘tirib ham, yotib ham Allohni zikr etadilar va osmonlaru yerning yaratilishi haqida fikr yuritadilar (va duo qiladilar:)”;

“Ey, imyon keltirganlar! Sabr qilingiz, bag‘rikeng bo‘lingiz va (Alloh yo‘liga) taxt bo‘lib turingiz va Allohdan qo‘rqingiz, zora (oxiratda) najot topsangiz! (Oli Imron surasi, 200-oyat);

Yuqorida keltirilganlardan ham ma’lumki, shaxsning ijtimoiy moslashuvida faollik bilan harakat qilishi va har tomonlama bag‘rikeng bo‘lishi dinimizda ham ta’kidlab o‘tilgan ekan.

Rossiyada olib borilgan dinning o‘smirlarni ijtimoiylashuvidagi o‘rnini aniqlash yo‘nalishidagi tadqiqodlar quyidagi xulosalarni ko‘rsatadi:

- Din o‘smirlarning ijtimoiy moslashuv faktorlaridan biri;
- Din ijtimoiylashuv instituti ham bo‘la oladi;
- Din tarbiyaviy xususiyat kasb etib o‘smirlarning ijtimoiylashuvida bevosita qatnashadi;
- Din spetsifik madaniyat shakli bo‘lib, insonda ijtimoiy-madaniy qadriyatlar tizimini vujudga keltiradi.
- Ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonida ijobiy yo‘nalgan munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi;
- Shaxsda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etishda unga psixologik resurs sifatida ta’sir qilib, ijtimoiy mobillikni tarkib toptiradi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Ismoilov.O. - “O‘smirlarning ijtimoiylashuvi bilan diniy tuyg‘u orasidagi o‘zaro munosabat” sciyehtific progress

Ijtimoiy adaptatsiya jarayonida talabalar faolligiga ta'sir etuvchi diniy omillar sifatida bir qanchasini keltirishimiz mumkin. Jumladan:

- ❖ diniy tolerantlik;
- ❖ diniy bag'rikenglik;
- ❖ diniy ong;
- ❖ diniy e'tiqod;
- ❖ diniy ustanovka;
- ❖ diniy yo'nalganlik.

Tolerantlik (lot.tolerantia – chidam, sabr-toqat), bag'rikenglik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo'lish. Bu bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashidir. Ya'ni tolerantlik bu o'zgalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatiga passiv, tabiiy ravishda buysunishni anglatmaydi. Balki alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, ijobiy hamkorlik yo'lidagi faol axloqiy nuqtai nazar va psixologik hamkorlikni anglatadi.<sup>2</sup>

Ijtimoiy ishga doir lug'at-ma'lumotnomada esa: “Tolerantlik – ijtimoiy ishning boshqaruv tamoyili, individlar, guruhlar va ijtimoiy hamjamiyatlar o'rtasidagi madaniy, irqiy va boshqa tafovutlarni tan olish, odamlarning tashqi qiyofasi, xatti-harakati, qadriyatlar yo'nalishi va ulardagi farqlarga nisbatan bag'rikenglikdir” – deyilgan.

Diniy tolerantlik – turli dinlar, konfessiyalar, konfessional guruhlariga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishdir. Ushbu xususiyatning mavjudligi talabalarda yangi o'quv yurtidagi boshqa kishilarni (kursdoshlar, o'qituvchilar, boshqa guruhdagilar, o'sha yerlik aholi va h.k) adekvat tushunish va qabul qilishiga yordam beradi.<sup>3</sup>

Diniy bag'rikenglik— boshqacha diniy qarashlar, axloqlar va turmush tarziga nisbatan murosa qilib yashashga odatlanish. Qator mamlakatlarda ko'p sonli diniy e'tiqod egalari bilan birga kam sonli boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar birgalikda, yagona jamiyatda hamkor, hamnafas bo'lib yashashlarining zarur sharti. Diniy bag'rikenglik tobora o'zini g'ayri insoniy mohiyatini ko'rsatib, soxta diniy shiorlar ostida gunohsiz odamlarning halok bo'lishlariga sabab bo'layotgani diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi qaratilgan harakat hamdir. O'z diniy qarashlari haqligiga qattiq ishongan, e'tiqod qo'ygan, boshqacha diniy qarashlar bilan erkin mushohadaga kira olish malakasiga ega bo'lgan individlarda diniy bag'rikenglik yaqqol namoyon bo'ladi.<sup>4</sup>

<sup>2</sup> Murtazayeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2019.

<sup>3</sup> Karimova E. Tolerantlik va hozirgi zamon. // J. Falsafa va huquq. – T., 2008. – №3. – B. 51.

<sup>4</sup> Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D.. Dinshunoslik. Qomusiy lug'at. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti,

Turli madaniyatga mansub aholi vakillari o‘zaro ahil-inoq yashab kelayotgan O‘zbekistonda milliy va diniy bag‘rikenglik hukm surmoqda. Bag‘rikenglik turli millat va elatga dahldor kishilarning, turli xil diniy e‘tiqodli insonlarning bir zamin, yagona Vatan, bir yurt, bir hududda oliyjanob g‘oya, orzu-umid, maqsad va niyatlar yo‘lida hamkor, hamfikr va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev xalqimizning dunyoqarashida tobora chuqur va mustahkam o‘rin egallayotgan bag‘rikenglik tamoyili to‘g‘risida shunday deydi: “Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”.<sup>5</sup>

O‘zbekistonning kelajagi tinchlik va bag‘rikenglik, madaniyatlararo uyg‘unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog‘langan. O‘zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e‘tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiy mushtarak an‘analarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda hamda shunga mos hart-sharoitlar yaratilmoqda.

Ijtimoiy adaptatsiyaga ta’sir etuvchi diniy psixologik omillardan yana biri bu diniy ong tushunchasidir. Talabalarda diniy ongning qay darajada shakllanganligi va qaysi diniy jamoaga mansubligi ijtimoiy adaptatsiya jarayonida muhin sanaladi.

Diniy ong - muayyan diniy g‘oyalar va qadriyatlarda ishtirok etish, shuningdek, ma‘lum bir din va diniy guruhga mansublikdir. Diniy ong shaxsning diniy munosabatlar tizimiga qo‘shilishi va diniy g‘oyalar, qadriyatlar, hissiy me‘yorlarni idrok etish orqali sodir bo‘ladi. Diniy ong va psixologiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq, balki ichiga singib ketuvchi jarayondir. Diniy va psixologik yondashuv ong kesimida inson qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash, e‘tiqod asoslarini mustahkamlashga zamin yaratadi. Diniy dunyoqarashning asosini diniy ong tashkil etadi. Diniy ong-ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, muayyan diniy tasavvurlar, tizimlar, obyektiv va subyektiv omillar asosida shakllanadi.<sup>6</sup>

Diniy ongning o‘ziga xos mazmuni ikki tomonning birligini - mazmunli va funktsional jihatdan beradi.

1) diniy ongning mazmunli tomoni e‘tiqodlilarning o‘ziga xos qadriyatlari va

2017 — 480 bet.

<sup>5</sup> <https://religions.uz/uz/news/detail?id=455>

<sup>6</sup> Dusmuxamedova.Sh.A. O‘zXIA “Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasi dotsenti G. O‘.Yuldosheva Psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti- “Diniy ong shaxs kamolotining muhim omili sifatida” Volume 3 | IIAU Conference 1 | 2022 Google Scholar indexed Scientific-Theoretical and Practical Issues of Psychology of Religion in Uzbekistan

ehtiyojlarini, ularning atrofidagi dunyo va boshqa haqiqat haqidagi fikrlarini shakllantiradi, bu ularning ruhiga muayyan g'oyalar, tasvirlar, his-tuyg'ular va kayfiyatlarni maqsadli joriy etishga yordam beradi. Bu nafaqat mafkurani emas, balki bir qarashda shunday ko'rinishi mumkin va ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, shuningdek, e'tiqodlilarning psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, ularning motivatsion, intellektual-bilim, hissiy-emotsional va kommunikativ xulq-atvor jarayonlarining sifat xususiyatlarini ifodalaydi.

Diniy ongning mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- afsonalar va afsonalarning diniy talqini;
- e'tiqod, e'tiqod va ibodatning o'ziga xos xususiyatlari;
- diniy va sirli tajribaning o'ziga xosligi;
- diniy his-tuyg'ular va kayfiyat, aql va tasavvurning umumiy o'ziga xosligi;
- e'tiqodlilarning irodasi va xatti-harakati.

2) diniy ongning funktsional tomoni e'tiqodlilarning ehtiyojlarini qondiradi, ularning mafkurasi va psixologiyasining namoyon bo'lishiga to'g'ri yo'nalish berib, ularning ruhiy va ruhiy holatini, kayfiyatini va tajribalarini shakllantiradi va ularning ruhiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Diniy ongning funktsional tomoni diniy harakatlar va urf-odatlarining o'ziga xos xususiyatlarini, diniy tasalli, diniy his-tuyg'ular va kayfiyatlarining katarsisini va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda diniy ong ham talaba shaxsining ijtimoiy adaptatsiya jarayonida faol bo'lishiga ta'sir qiluvchi diniy psixologik omillardan biri sifatida qarashimiz mumkin. Chunki diniy ongning ijobiy shakllanganligi har bir xatti-harakatlarni ongli ravishda anglab bajarish va diniga to'g'ri kelishi haqida fikr yuritishni ta'minlab beradi.<sup>7</sup>

Diniy ongning umumiy belgisi mezoni diniy e'tiqoddir. Din tarkibida e'tiqod ham muhim o'rin egallaydi. "E'tiqod – kishining muayyan hodisa, uning xossa va xususiyatlari haqqoniy ekanligiga ishonchi". Ishonch e'tiqodning asosini tashkil etadi. Biroq har qanday ishonchni ham e'tiqod deb ayta olmaymiz.

Diniy e'tiqod - diniy ongning tarkibiy va funktsional jihatlarini birlashtiradi. Diniy e'tiqod erkinlik va qaramlik munosabatlarining asosi va sharti bo'lib, ayni paytda bu munosabatlarni yengish istagini o'z ichiga oladi. U maqsad va ma'no beradi va iymonlilar uchun qadrlidir.<sup>8</sup>

E'tiqod (lot. veritas – rostgo'ylik, to'g'rilik, ochiq-oydinlik) – shaxsning his-

<sup>7</sup> Iskandarov E.G."Diniy ongning o'ziga xosligi va uning namoyon bo'lishning psixologik jihatlarini" eurasian journal of social sciences, philosophy and culture Volume 3 Issue 1, Part 2 January 2023.

<sup>8</sup> Dusmuxamedova.Sh.A. O'zXIA "Din psixologiyasi va pedagogika" kafedrasi dotsenti G. O'Yuldosheva Psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti- "Diniy ong shaxs kamolotining muhim omili sifatida" Volume 3 | IIAU Conference 1 | 2022 Google Scholar indexed Scientific-Theoretical and Practical Issues of Psychology of Religion in Uzbekistan.



tuygʻulari vositachilgisiz yoki fikrning mantiqiy izchilligisiz biror narsaning mavjudligiga ishonch hosil qiladigan ichki holati.

Olimlar eʻtiqodni tabiatiga koʻra ikkiga boʻladilar. Baʼzilarining fikricha, diniy va nodiniy eʻtiqodlar bitta narsa – ularning ikkalasi ham dinga borib taqaladi, dinga taalluqli boʻlgan masalalardir. Masalan, K.K.Platonov shunday deb yozadi: “Eʻtiqodni diniy ong tuzilmasining zaruriy komponenti hisoblangan tuygʻu deb taʻriflash mumkin. U oʻzining ishtirokida yaratilgan fantaziya asosida bilishning va voqelikning illyuziyasini yaratadi”. Yaʼni olim diniy va nodiniy eʻtiqodlarni bitta narsa deb qabul qilayapti. Insonning eʻtiqodi uning predmetiga nisbatan odamda qiziqish boʻlsagina paydo boʻladi. Eʻtiqodning paydo boʻlishligi uchun eʻtiqod subʻyektida faol emosional va baholovchi reaksiyasi boʻlmogʻi zarur. Agar u yoki bu gʻoyaga, gipotezaga, obrazga yoki boshqa narsalarga nisbatan faol qiziqishi boʻlmas ekan, bu yerda eʻtiqod haqida gapirishga ham hojat yoʻq. Eʻtiqodning bilimdan farqi ham shunda aslida. Oʻz oʻzicha bilim obʻyektiv, u insonlarning emotsiyalariga yoki ularning shaxsiy oriyentatsiyasiga bogʻliq boʻlmagan holda mavjud hisoblanadi. Shaxsning qiziqishlariga mutlaqo aloqasi boʻlmagan, unda emotsiyalar yoki baholash reaksiyalarini chaqirmagan narsalar toʻgʻrisida bilimlarga ega boʻlish mumkin. Insonda faqatgina aqlga emas, balki yurakka yaqin boʻlgan, shaxsda faol shaxsiy munosabat uygʻotadigan narsalargagina eʻtiqod paydo boʻladi. Shu nuqtai nazardan har qanday eʻtiqod uchun baʼzi umumiy psixologik xususiyatlar kelib chiqadi.

- Birinchidan, eʻtiqod deb atayotganimiz shaxsiy munosabatda insonning tuygʻulari bilan bogʻliq holda sodir boʻladi. Chunki eʻtiqodning predmeti insonning manfaatli munosabatini chaqiradi..

- Ikkinchidan, eʻtiqodda eʻtiqod predmetiga mantiqiy baho beriladi.

- Uchinchidan, eʻtiqod oʻz predmetiga faol shaxsiy munosabat bildiradi. Bu munosabat irodaviy jarayonlarni zarur qilib qoʻyadi va u yoki bu darajada insonning xulq-atvorida oʻz aksini topadi.

Diniy eʻtiqodning xususiyatlarini aniqlash uning gnoseologik xarakteristikalaridan boshlanadi. Maʼlumki, diniy ongning muhim belgilaridan biri ilohiyotga ishonishdir.

Diniy eʻtiqodning quyidagi psixologik xususiyatlari mavjud:

- a) gʻayritabiiy kuchlarning mavjudligiga ishonch;
- b) inson hayotiga va umuman jamiyatga ilohiy kuchlarning taʼsiri borligiga ishonch;
- v) gʻayritabiiy kuchlar bilan insonning aloqa qilishiga imkoni borligiga ishonch.

Islom manbalariga koʻra, diniy eʻtiqodda toʻrtta masalaga nisbatan munosabat qamrab olinadi: ilohiyotga, nubuvvatga, kavniyotga va gʻaybiyotga.<sup>9</sup>

<sup>9</sup> Alimov X. “Din psixologiyasi” darslik – Toshkent.: “MOVAROUNNAHR”, 2019.74-75-betlar.

Shuningdek yuqoridagilar haqida Abdulqodir AbduRahimning “E’tiqod durdonalari” asarida mukammal baho beriladi:

1. Ilohiyot - bu qismda Alloh taoloning borligi, bu haqdagi aqliy va naqliy dalillar, Alloh taoloning sifatlari, nuqsonlardan mutloq holi ekanli, qazo va qadar, jannatda Alloh taoloni ko‘rish kabi masalalar haqida bahs yuritiladi.

2. Nubuvvat - bu qismda nubuvvat va risolat ma’nolari, vahiy tushunchasi, payg‘ambarlar va ularning sifatlari, mo‘jizalari va boshqa ularga tegishli masalalar to‘g‘risida bahs qilinadi.

3. Kavniyot - bu qismda insonlar, farishtalar, jinlar, borliqdagi sababiyat qonunlari va hokazo borliqdagi barcha mavjud narsalar to‘g‘risida bahs qilinadi.

4. G‘aybiyot - bu qimda juda ko‘plab haqiqatlar to‘g‘risida bahs qilinadi. Ularni umumiy qilib uch qismga ajratish mumkin:

a) o‘limga taalluqli bo‘lgan bahslar;

b) qiyomat alomatlari to‘g‘risidagi bahslar;

v) qiyomat kuni va u kunda ro‘y beradigan voqealar to‘g‘risidagi bahslar.<sup>10</sup>

Diniy e’tiqod shaxsning barqarorligini ta’minlab beradi, o‘ziga ishonchini yuqori darajada oshirishga xizmat qiladi, tashvish hissini kamaytirishga va o‘zini o‘zi saqlashga yordam beradi. Shu sababdan ham diniy e’tiqodni ijtimoiy adaptatsiya jarayonidagi faollik bilan aloqador deb olishimiz mumkin bo‘ladi.

Demak, shaxs kamolotning muhim mezoni sifatida uning jamiyatga moslashuvi, insonlar jamoasiga qo‘shilishi, shuningdek shaxslararo munosabatlarda tutgan o‘rni, mavqeiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Shu bois jamiyatga moslashuvining nazariy asoslari bayon qilib berilgan. Xulosa o‘rnida yana shuni keltirib o‘tish joizki:

— Ijtimoiy adaptatsiya jarayonida shaxs, xususan talabalarning faol bo‘lishlari uchun ularda ma’lum bir diniy psixologik xususiyatlarning (diniy tolerantlik, diniy bag‘rikenglik, diniy ong, diniy e’tiqod, diniy ustanovka, diniy yo‘nalganlik va.h.k) ijobiy darajada shakllanganligi va ushbu diniy psixologik omillar ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulqodir Abdur Rahim. E’tiqod durdonalari. Mas’ul muharrir / Jaloliddin Hamroqulov. – T.: “Sharq”, 2016. – 480 b. – 40 b.

2. Alimov X. “Din psixologiyasi” darslik – Toshkent.: “MOVAROUNNAHR”, 2019.74-75-betlar.

3. Dusmuxamedova.Sh.A. O‘zXIA “Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasida dotsenti G. O‘.Yuldosheva Psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti- “Diniy ong

<sup>10</sup> Abdulqodir Abdur Rahim. E’tiqod durdonalari. Mas’ul muharrir / Jaloliddin Hamroqulov. – T.: “Sharq”, 2016. – 480 b. – 40 b.

shaxs kamolotining muhim omili sifatida” Volume 3 | IIAU Conference 1 | 2022  
Google Scholar indexed Scientific-Theoretical and Practical Issues of Psychology of Religion in Uzbekistan.(2).

4. Iskandarov E.G'. "Diniy ongning o'ziga xosligi va uning namoyon bo'lishning psixologik jihatlari" eurasian journal of social sciences, philosophy and culture Volume 3 Issue 1, Part 2 January 2023.

5. Ismoilov.O. - "O'smirlarning ijtimoiylashuvi bilan diniy tuyg'u orasidagi o'zaro munosabat" sciyentific progress volume 2 | ISSUYe 8 | 2021 (2-bet)

6. Karimova E. Tolerantlik va hozirgi zamon. // J. Falsafa va huquq. – T., 2008. – №3. – B. 51.

7. Murtazayeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2019.

8. Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D. Dinshunoslik. Qomusiy lug'at. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2017 — 480 bet.

9. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=455>